

TALABALARNI EKONOMETRIKA FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI VA UNING ASPKLTLARI

Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna

“Biznes va innovatsion menejment” kafedrasi assistenti

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

<https://orcid.org/0000-0001-5987-0172>

Annotatsiya

Mazkur maqolada tadqiqotchi tomonidan oliv ta‘lim muassasalari talabalarni ekonometrika fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar tushunchasi va uning aspkltlari, zaruriyati va dolzarbligi haqida mulohazalar mavjud. Tadqiqotchi maqolada pedagogik texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar va uning aspkltlari, ilmiy aspekt **va** protsessual-tasviriy aspekt, protsessual-tasviriy aspekt, protsessual-harakatlanuvchi aspkltlar haqida ma’lumotlar keltirgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiyar, aspekti, ilmiy aspekt, protsessual-tasviriy aspekt, konseptual aspekt, mazmuniy aspekt, metodik aspekt, protsessual aspekt, verifikatsion aspekt.

ПОНЯТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ АСПЕКТЫ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ЭКОНОМЕТРИКЕ

Равшанова Мұхайё Махманазаровна

Каршинский инженерно-экономический институт

Ассистент кафедры “Бизнес и инновационный менеджмент”

Аннотация

Данная статья содержит комментарии исследователя о понятии педагогических технологий и их аспектах, необходимости и актуальности в обучении эконометрике студентов высших учебных заведений. В статье исследователь представил информацию о педагогических технологиях, педагогических технологиях и их аспектах, научном аспекте и процессуально-описательном аспекте, процессуально-описательном аспекте, процессуально-двигательных аспектах.



Ключевые слова: педагогический технологический аспект, научный аспект, процессуально-описательный аспект, понятийный аспект, содержательный аспект, методический аспект, процессуальный аспект, проверочный аспект.

THE CONCEPT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND THEIR ASPECTS IN TEACHING ECONOMETRICS TO STUDENTS

Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna

Karshi engineering-economics institute

Assistant of the Department “Business and innovative management”.

Annotation

This article contains the researcher's comments on the concept of pedagogical technologies and their aspects, the need and relevance in teaching econometrics to students of higher educational institutions. In the article, the researcher presented information about pedagogical technologies, pedagogical technologies and their aspects, the scientific aspect and the procedural-descriptive aspect, the procedural-descriptive aspect, the procedural-motor aspects.

Keywords: pedagogical-technological aspect, scientific aspect, procedural-descriptive aspect, conceptual aspect, content aspect, methodological aspect, procedural aspect, verification aspect.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasining uch aspekti ajratib ko‘rsatilgan:

- ilmiy aspekt: pedagogik texnologiya – tahsilning maqsadlarini, mazmunini va metodlarini o‘rganuvchi va ishlab chiquvchi va pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi pedagogik fan sohasining bir qismi;
- protsessual-tasviriyl aspekt: jarayon algoritmini bayon qilish, tahsilning rejalanayotgan natijalariga erishish uchun maqsadlar, mazmun, metodlar va vositalar yig‘indisidir;
- protsessual-harakatlanuvchi: texnologik (pedagogik) jarayonni amalga oshirish, shaxsga oid, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning funksiya bajarishi.

Shu o‘rinda “pedagogik texnologiya” tushunchasini qo‘llash amaliyotida ierarxik tarzidagi bo‘ysunuvchi uch darajani ko‘rib chiqadi:

1. Umumiy pedagogik yoki umumiy didaktik daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya mazkur o‘quv muassasasidagi, tahsilning muayyan pog‘onasidagi yaxlit bir ta’lim jarayonini tavsiflaydi. Ushbu



darajada pedagogik texnologiya va pedagogik tizim sinonimlar o'larq ko'riladi, texnologiya tahsilning maqsadlari, mazmuni, vositalari va metodlari yig'indisini, jarayonning sub'ektlari va ob'ektlari faoliyati algoritmini o'z ichiga oladi.

2. Xos-metodik - predmetli daraja: xos predmetli pedagogik texnologiya "xos metodika" ma'nosida, ya'ni bir predmet, auditoriya, ta'lim beruvchi (predmetlarni o'tish metodikasi, kompensatsiya qiluvchi tahsil metodikasi, o'qituvchi, tarbiyachi ishi metodikasi) doirasida tahsil va tarbiyaning muayyan mazmunini ro'yobga chiqarish uchun mo'ljallangan metodlar va vositalar yig'indisi o'larq iste'molda (ilmiy muomalada) ishlataladi.

3. Lokal-modulli daraja: lokal texnologiya o'quv-tarbiya jarayonining alohida qismlari texnologiyasini, xos didaktik va tarbiyaviy vazifalarni bajarishni, ya'ni alohida faoliyat turlari, tushunchalarni shakllantirish, alohida shaxs sifatlarini tarbiyalash texnologiyasi, dars texnologiya, yangi bilimlarni o'zlashtirish texnologiyasi, materialni takrorlash va nazorat qilish texnologiyasi, mustaqil ishslash texnologiyasi va shu kabilarni o'zida ifoda etadi.

Shunday qilib, xos-predmetli va lokal darajali pedagogik texnologiya tushunchasi tahsil metodikasi tushunchasi bilan aytarli to'liq qoplanadi, uyg'unlashadi. Texnologiyalarda ko'proq tartibiy, miqdoriy va hisob-kitobli komponentlar keltirilgan bo'lsa, metodiklarda maqsadli, mazmunli, sifat va variativ-mo'ljalni oluvchi jihatlar ko'rsatilgan. Texnologiya metodikalardan o'zining natijalarni qayta tiklay olishi, barqarorligi bilan farqlanadi. Ba'zan metodikalar texnologiyalar tarkibiga kiradi, ba'zan esa aksincha, u yoki bu texnologiyalar tahsil metodikalari tarkibiga kiradi.

Pedagogik texnologiyasi tushunchasini anglashda quyidagi qabul qilingan pozitsiyalarga tayanib tahsil texnologiyasining ishchi ta'rifi bayon qilamiz. Pedagogik texnologiyasi deganda - metodik tizimning ilmiy bilimni didaktik tadbiqiga yo'naltirilgan, empirik innovatsiyalarni va natijalarga erishishga hamda uning samaradorligini tekshirishga intilishni hisobga olib o'quv jarayonini konstruksiyalashni o'z ichiga oluvchi amaliy ro'yobni tushunamiz.

Pedagogik texnologiyaning quyidagi aspektlarini ajratamiz:

- konseptual aspekt – tahsil maqsadlarini, ularga erishish g'oyalarini, natijaga qo'yiladigan talablarni, texnologiyani qurishda qo'llanadigan tamoyillarni o'z ichiga oladi;
- mazmuniy aspekt - bevosita tahsil mazmunini, mazkur texnologiya uchun mo'ljallangan kursni loyihalashning xususiyatlarini o'z ichiga oladi;
- metodik aspekt – tahsil metodlari va vositalarini o'z ichiga oladi;



- protsessual aspekt – o‘quv jarayonini tartibga soluvchi normativ hujjatlarni, ishchi dasturni, o‘quv rejasini, tahsilning ehtimoliy shakllarini o‘z ichiga oladi;
- verifikatsion aspekt – texnologiya samaradorligini tekshiruvchi ekspertizani o‘z ichiga oladi.

Metodik tizim pedagogik texnologiyasini ishlab chiqishga mo‘ljallangan nazariy baza sifatida namoyon bo‘ladi, pedagogik texnologiyasi esa aniq o‘quv-tarbiyaviy jarayonda metodik tizimning ifoda topishi hisoblanadi, faqat o‘zining bir butunligida ular uni amalga oshirish uchun zarur va yetarli sharoitlarni hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sotvoldiyev A. I., Yuldashev S. A. MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA MATEMATIK MODEL QURISH METODLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 44-50.
2. Qodirova D. A. MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA UNING AHAMIYATI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 79-82.
3. Maxmanazarovna R. M. The Importance of a Confirming Experiment in Pedagogical Work in Teaching the Science of Econometrics //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 8. – C. 255-257.
4. Aliyeva M. CONCEPTS OF FORMING THE MANAGEMENT SYSTEM OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES //Yevrazийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 124-136.
5. Rakhimov A. N., Makhmatkulov G. K., Rakhimov A. M. Construction of econometric models of development of services for the population in the region and forecasting them //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – T. 3. – №. 02. – C. 21-48.
6. Oktyabrovna R. D. TYPES AND FORMS OF ORGANIZING MANAGEMENT SCIENCE EDUCATION //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2022. – T. 10. – №. 2.

